

УДК 338,4

HUNARMANDCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Abdimurodova Luiza Abdimurod qizi.

Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

abdimurodova luiza@gmail.com

РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕМЕСЛЕННОЙ ИНДУСТРИИ

Абдимуродова Луиза Абдимурод

Магистрант Азиатского международного университета,

[\(abdimurodova luiza@gmail.com\)](mailto:abdimurodova luiza@gmail.com)

THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE CRAFT INDUSTRY

Abdimurodova Luiza Abdimurod qizi

Graduate student of Asian International University, (abdimurodova luiza@gmail.com)

Anotatsiya: hunarmandchilik sohasida axborot texnologiyalarni qo'llanishi keng imkoniyatlarni yaratadi. Mahsulotni dizaynlash, marketing qilish va xalqaro bozorlarga olib chiqishda texnologiyalar muhim rol uynaydi. Bugungi kunda hunarmandlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi ularning o'z mahsulotlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatini yaratib kelmoqda.

Kalit so'zlar: marketing, infratuzilma, madaniy meros, axborot texnologiyalar, platforma, reklama, elektron tijorat, dizayn.

Роль информационных технологий в развитии ремесленного сектора.

Аннотация: использование информационных технологий в сфере рукоделия создает новые возможности. Технологии играют важную роль в дизайне продукции, маркетинге и международных рынках. Сегодня использование мастерами социальных сетей создает для них возможность доставлять свою продукцию широкий аудитории.

Ключевые слова: маркетинг, инфраструктура, культурное наследие, информационные технологии, платформа, реклама, электронная коммерция, дизайн.

The role of information technologies in the development of the craft sector.

Abstract: the use of information technologies in the field of handicrafts creates new opportunities. Technologies play an important role in product design, marketing and international markets. Today the use of social networks by craftsmen creates an opportunity for them to deliver their products to a wide audience

Key words: marketing, infrastructure, cultural heritage, information technologists, platform, advertising, electronic commerce, design.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘risida”gi PQ-4539-son qarori asosida hunarmandchilar o‘rtasida usta-shogird tizimini rivojlantirish va hunarmandlarga infratuzilma va moliyaviy yordam berish ko‘zda tutilgan. President qaroriga asosan hunarmandlarga past foizli kredirlar ajratish ustaxonalar va savdo majmualar qurish uchun yer uchastkalari ajratish ko‘zda tutilgan[1]. Bu kabi qarorlar O‘zbekiston qo‘l mehnati san‘atini rivojlantirish, milliy madaniy merosni saqlash va hunarmandchilarning iqtisodiy ahvolini yanada yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek bunday tashabbuslar hunarmandchilikni iqtisodiyotning muhim qismi sifatida rivojlantirish va milliy merosni saqlashga xizmat qiladi.

Hunarmandchilik san‘ati O‘zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlarining asrlar davomida shakllangan boy ma‘daniy merosi hisoblanadi. Bu soha nafaqat amaliy qo‘l san‘ati sifatida, balki xalq ijodining va milliy o‘zlikni namoyon etishning muhim vositasi sifatida ham qadrlanadi. Bugungi kunda, globallashuv jarayonida milliy me‘rosni saqlash va yangi bozorlarni zabt etish uchun hunarmandchilik sohasiga innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari hunarmandlarga o‘z mahsulotlarini keng auditoriyaga yetkazish, ichki va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish va milliy ma‘daniy merosni saqlab qolish imkonini beradi. Ushbu maqolada hunarmandchilikni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari, ahamiyati va uning muhim jihatlari yoritib berilgan.

Hunarmandchilikning asl mazmuni va uning ahamiyati so‘z ketganda shuni aytish mumkinki, hunarmandchilik asrlar davomida o‘zbek xalqining boy an‘analarini saqlab kelayotgan sohalardan biri bo‘lib hisoblanadi va bu soha qo‘l mehnati asosida yaratilgan mahsulotlar va san‘at asarlarini o‘z ichiga oladi. Bu mahsulotlar milliy o‘zlik, an‘analar, tarixiy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Misol uchun, kulolchilik, zardo‘zlik, naqqoshlik, yog‘och o‘ymakorligi kabi hunarmandchilik turlari xalq orasida yuqori qadrlanadi. Hunarmandchilik sohasining rivojlanishi, milliy iqtisodiyotga, turizmga va aholini ish bilan ta‘minlanishga hissa qo‘shadi, boshqa tomondan esa o‘ziga xos san‘at sifatida xalqning ma‘naviy merosini saqlaydi.

Hunarmandchilik xalqning ijodkorlik salohiyati va mehnat an‘analarining uyg‘unligidan shakllangan. Ammo bugungi kunda global bozor talablari o‘zgarib borayotgan bir vaqtda, hunarmandchilik mahsulotlarini raqobatga bardoshli qilish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zaruratga aylanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Buxoro vahasida hunarmandchilikning turli xil sohalari ancha rivojlangan. Mahoratli buyum va mahsulotlarni tayyorlashda o‘ziga xos hunar sirlari mavjud. Viloyatda hunarmandchilik an‘analarini rivojlantirishda zamonaviylikga e‘tibor qaratilyapti. Masalan Buxoro viloyati xududida 1 gektar yer maydonda hunarmandchilik markazi tashkil etildi. Hozirgi kunda markazda Muhiddinov Akmal boshchiligidagi 30 dan ortiq hunarmand o‘z yunalishlari bo‘yicha faoliyat yuritib kelishmoqda. Shuningdek bugungi kunda hunarmandchilik faoliyatidan tashqari tosh o‘ymakorligi, xattotlik, miniatura yo‘nalishlarida ham o‘quv

kurslari tashkil etilgan. 2018-2019 yillarda viloyatda hunarmandchilik ob'ektlarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi bo'yicha ma'lumotga ko'ra Buxoro viloyatida hozirgi vaqtda qiymati 17078,0 mln so'mga 594 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib va bundan 292 tasi dasturga kirgizilgan bo'lib bundan 302 tasi qo'shimcha loyiha hisoblanadi. Kredit olish uchun bankga 401 ta qiymati 13440,9 mln so'm xujjat taqdim etilgan bo'lib bulardan 330 tasiga 10714,9 mln so'mlik kredit ajratilgan. 403 ta ishchi o'rinlari yaratilgan. (S.F.Jabborov & S.I.Inoyatov)

Axborot texnologiyalari ma'lumotlarni to'plash, saqlash, qayta ishlash va yetkazish uchun qo'llaniladigan texnologiyalar tushuniladi. So'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari rivoji, internet, raqamli kommunikatsiyalar va zamonaviy dasturiy ta'minotlarning keng qo'llanilishi natijasida barcha sohalar uchun katta imkoniyatlar yaratildi. Axborot texnologiyalari yordamida ma'lumotlar bazalarini yaratish, elektron savdoni yo'lga qo'yish, mahsulotlar va xizmatlarni xalqaro miqyosda reklama qilish va targ'ib qilish imkoniyatlari kengayib bormoqda.

Hunarmandchilik sohasida ham axborot texnologiyalari o'z o'rnini topmoqda. Onlayn savdoni amalga oshirish, hunarmandlarning tajribalarini saqlash va ulardan o'rganish, milliy hunarmandchilikni xalqaro auditoriyaga tanitish texnologiyalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Hunarmandchilik sohasida axborot texnologiyalarini qo'llash va ulardan foydalanish hunarmandlarga bir qator qulayliklarni taqdim etadi:

Raqamli texnologiyalar yordamida dizayn yaratish mahsulotlarni yangilash, ularning rang va shakllarini o'zgartirish jarayonini jadallashtiradi. Naqqoshlar va zardo'lar dasturiy ta'minot yordamida o'z mahsulotlarini dizaynlash jarayonini ancha osonlashtirishlari mumkin. Adobe Photoshop, CorelDRAW kabi grafik dasturlar hunarmandlar uchun juda qulay hisoblanib, dizaynlash jarayonlarini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Axborot texnologiyalarining muhim jihatlaridan biri mahsulotlarni keng auditoriyaga reklama qilish imkonini yaratadi. Hunarmandlar ijtimoiy tarmoqlar, shaxsiy veb-saytlar, reklama platformalari yordamida mahsulotlarini dunyoga tanitishi mumkin. Bu esa mahsulotlarga bo'lgan talabni oshirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatini beradi.

Onlayn savdo platformalari, masalan, Amazon, Etsy va eBay, hunarmandchilik mahsulotlarini global miqyosdasotish imkoniyatini beradi. Mahalliy hunarmandlar uchun mahsulotlarini butun dunyo bo'ylab mijozlarga yetkazib berish uchun elektron tijoratning o'rni katta ahamiyat kasb etadi.

Bu esa o'z navbatida eksport hajmini oshiradi va milliy mahsulotlarni butun dunyoga tanitishga yordam beradi.

Hunarmandlar uchun elektron savdo platformalari va marketingning o'ziga xos o'rni mavjud. Masalan elektron tijorat platformalari hunarmandlar uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqaro platformalar (Amazon, Etsy, eBay va boshqalar) orqali hunarmandlar o'z mahsulotlarini global miqyosda reklama qilishi va sotishi mumkin. Bu platformalar hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirib, milliy o'zlikni global miqyosda tanitish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda hunarmandlar marketing faoliyatida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib kelishmoqda. Instagram, Facebook kabi platformalar hunarmandlarga o'z

mahsulotlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatini beradi. Bu tarmoqlar hunarmandlarga o'z mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lish imkonini berib, savdo hajmini oshirishga xizmat qiladi

Axborot texnologiyalari hunarmandchilik an'analarini saqlash va ularni kelajak avlodlarga yetkazish uchun kerakli vosita hisoblanadi. Raqamlashtirish texnologiyalari hunarmandchilikning noyob texnikalarini, naqshlarini va boshqa uslublarini saqlashga yordam beradi.

Misol uchun Virtual muzeylar va galereyalar orqali hunarmandchilik mahsulotlarini global miqyosda targ'ib qilish mumkin. Hunarmandlar texnologiyalar yordamida mahsulotlar yaratish, marketing qilish va xalqaro bozorlarga chiqish usullarini o'rganishi zarur.

Hunarmandchilik sohasida axborot texnologiyalarini qo'llash jarayonida ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Bular orasida texnologik bilimlarning yetishmasligi, moliyaviy cheklovlar va raqobatning kuchayishi kabi masalalarni keltirib chiqaradi:

Texnik bilim va tajriba yetishmovchiligi: Ko'plab hunarmandlar raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha yetarli bilimga ega emaslar. Bu esa ularning o'z mahsulotlarini onlayn tarzda reklama qilish va sotishga imkon bermaydi. Ushbu muammoni hal qilish uchun maxsus trening va o'quv kurslari tashkil etish kerak bo'ladi. Davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bu sohada texnik ko'nikmalarni oshirish uchun maxsus dasturlarni yo'lga qo'yishlari mumkin.

Hunarmandchilik sohasida axborot texnologiyalarni qo'llashda moliyaviy cheklovlarni ham hisobga olish kerak. Elektron tijorat platformalari va raqamli reklama xizmatlaridan foydalanish ko'pincha qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. Bu esa ayrim hunarmandlar uchun qiyinchilik tug'diradi. Moliyaviy yordam dasturlari va davlat granti orqali hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash ushbu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Hunarmandchilik sohasida texnologiyalar yordamida raqobatbardoshlikni oshirish

Hunarmandlarning raqobatbardoshligini oshirishda axborot texnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalar hunarmandlarga yangi dizayn va mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Dizayndagi noyoblik va sifat mahsulotlarni bozorda ajratib turadi va ularga yuqori qiymat qo'shadi.

Shuningdek, hunarmandlar mahsulot sifatini yaxshilash uchun texnologiyalardan foydalanishlari mumkin. Masalan, mahsulotni yanada mustahkam qilish, rang-barangligini oshirish, yangi materiallardan foydalanish texnologiyalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Mahsulotlarni 3D modellash orqali yanada jozibador dizayn yaratish, bozorda o'z o'rnini mustahkamlash va xaridorlar sonini oshirishga yordam beradi.

Kelajakda axborot texnologiyalari hunarmandchilik sohasida yanada chuqurroq kirib boradi. Innovatsion texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va 3D bosma, hunarmandlarga mahsulot dizaynlarini yanada kengaytirishga, yangi imkoniyatlar yaratishga va ishlab chiqarish jarayonlarini soddalashtirishga imkon beradi.

Kelajakda hunarmandchilik sohasida raqamli texnologiyalarni kengroq qo'llash bilan birga o'zbek milliy mahsulotlarini xalqaro miqyosda kengroq tanitish va eksport hajmini oshirish imkonini berishi mumkin. Sun'iy intellekt yordamida bozor talablarini

va mijozlar ehtiyojlarini aniqlash, bu ehtiyojlarga mos mahsulotlar yaratish, shuningdek, yangi dizaynlar yaratish va mahsulotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda hunarmandchilik sohasining zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlanishida axborot texnologiyalar katta imkoniyatlar yaratadi. Mahsulotlarni dizaynlash, marketing qilish va xalqaro bozorlarga olib chiqishda texnologiyalar yetakchi rol o'ynaydi. Biroq bu jarayonda ayrim qiyinchiliklar ham mavjud. Hunarmandchilarning texnologik bilimlarni oshirish, ularga moliyaviy qo'llab-quvvatlash va raqobatga bardoshli mahsulotlar yaratish orqali bu muammolarni hal qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'risida"gi PQ-4539-son qarori // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda PQ-77-son "Hunarmandchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori. // <https://lex.uz/docs/5807559>
3. Jabborov Sanjar Fayzullayevich & S.I.Inoyatov.(2022, April 12). VOHA MILLIY HUNARMANDCHILIGI NURLARI, AN"ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK. "FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY ASINTERDISCIPLINARYSCIENCE"Italy. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6453022>
4. Mukhitdinov Khudoyar Suyunovich1, Norqobilova Feruza Abdihamidovna2. // Prospects Of Digitalization Of Craftsmanship Development In The Region / Journal of Pharmaceutical Negative Results: Volume 13: Special Issue 9: 2022.
5. Xalilov Q. MINTAQADA TURIZM HUNARMANDCHILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DESTINATSION YONDASHUVI //DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 46-49.
6. F.A.Norqobilova // Xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modellashtirishda tizimli tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirish / Vol. 1 No. 2 (2021): International journal of conference series on education and social sciences. -p. 224-228.